O‘ZBEK TO‘Y MAROSIMLARINING KELIB CHIQISH TARIXI VA ULARNING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI PEDAGOGIK-MA’NAVIY AHAMIYATI

Ummatkulova N.,GDPI stajyor-o‘qituvchisi
Safarova M.,GDPI Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Anotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek xalqining qadimiy va boy madaniyati namoyon bo‘ladigan to‘y marosimlarining kelib chiqish tarixi,ularning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. To‘y marosimlari nafaqat milliy urf-odatlar,balki yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita sifatida qaralgan.Maqolada aynan o‘zbek to‘ylarining pedagogik va axloqiy-ma’naviy jihatlari alohida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek to‘y marosimlari,milliy urf-odatlar,pedagogik-ma’naviy tarbiya,yoshlar tarbiyasi,oila qadriyatlari,ma’naviy meros,tarixiy an’analar.

Аннотация: в статье рассматривается история возникновения, становления и этапы развития свадебных обрядов, отражающих древнюю и богатую культуру узбекского народа. Свадебные обряды считаются не только национальной традицией, но и важным инструментом воспитания подрастающего поколения. В статье подробно анализируются педагогические и нравственно-духовные аспекты узбекских свадеб.

Ключевые слова: узбекские свадебные обряды, национальные традиции, педагогическое и духовное воспитание, воспитание молодежи, семейные ценности, духовное наследие, исторические традиции.

Annotation: this article covers the history of the origin of wedding ceremonies, which reflect the ancient and rich culture of the Uzbek people, their formation and stages of development. Wedding ceremonies are considered not only national traditions, but also an important tool in educating the younger generation. The article specifically analyzes the pedagogical and moral-spiritual aspects of Uzbek weddings.

Keywords: uzbek wedding ceremonies, national traditions, pedagogical-spiritual education, youth education, family values, spiritual heritage, historical traditions.

O‘zbek xalqining to‘y marosimlari qadimdan shakllanib kelgan bo‘lib,ular dastlabki diniy va ijtimoiy marosimlardan boshlangan.Maxmud Koshg ‘ariy,Yusuf Xos Hojib kabi allomalarning asarlarida nikoh,oilaviy munosabatlar,urf-odatlar haqida ma’lumotlar uchraydi.Bular to‘y marosimlarining o ‘ziga xos tartibi qadriyatlari va me’yorlariga asos bo‘lgan.To‘y – faqat ikki insonning hayotini bog‘lovchi tadbir emas,balki butun jamiyat e’tiborida bo‘lgan muhim ijtimoiy voqealikdir. To‘y marosimlari o‘zbek xalqining ma’naviy merosini,axloqiy qadriyatlarini yoshlarga yetkazishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.To‘yga tayyorgarlik jarayonida yoshlarga mehnatsevarlik,sabr-toqat,uyushqoqlik,katta-kichikni hurmat qilish,jamoa bilan ishlash,odob-axloq kabi fazilatlar o‘rgatiladi.

Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot,yo najot – yo halokat masalasidir”.To‘y jarayonida yoshlar nafaqat hayotiy saboqlar,balki milliy o‘zlikni anglash,ajdodlar yo‘lini davom ettirish kabi ruhiy-ma’naviy yuksaklikni his qilishadi.

Zamonaviy o‘zbek to‘ylarida qadimiy a’nanalar bilan bir qatorda yangi davr talablari ham o‘z aksini topmoqda.Masalan,to‘y marosimlarida teatrlashtirilgan sahnalar,musiqali dasturlar,zamonaviy liboslar,foto va video texnalogiyalarning qo‘llanishi an’anani zamon bilan uyg‘unlashtiradi.Bu esa yoshlar ongida milliy qadriyatlar bilan zamonaviy tafakkurni birlashtirish imkonini beradi.SHuningdek,to‘ylar orqali yurt tinchligi,oila mustahkamligi,sog‘lom turmush tarziga oid g‘oyalar ham targ‘ib qilinadi.Ota-onalar,ustozlar,oqsoqollar tomonidan berilkadigan nasihatlar yoshlar tarbiyasida katta ahmiyat kasb etadi.To‘ylar mahalla,qarindosh-urug‘ do‘st-yorlarni birlashtiruvchi ijtimoiy institutdir.Aynan shu birlik orqali yoshlar o‘z o‘rnini,ma’suliyatini his qiladilar. To‘y marosimi davomida erkak va ayol burchi,oila boshqaruvi,mehr-oqibat,hallolik,iffatlilik kabi tushinchalar bolalar ongiga singdiriladi.Tarixiy manbalar va bugungi kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki,to‘y - bu nafaqat xursandchilik,balki milliy o‘zlikni saqlab qolish,yoshlar ongida jamiyatga daxldorlik tuyg ‘usini shakllantirish vositasidir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki,o ‘zbek to‘y marosimlari – bu nafaqat madaniy meros,balki kuchli pedagogik quvvatga ega tarbiya vositasidir.U orqali yosh avlodga axloq,odob,ma’naviyat,milliy qadriyatlar,oila ,mas’uliyati,sabr,jamoa bilan ishlash kabi ko‘plab fazilatlar o‘rgatiladi.SHuning uchun bu marosimlarni chuqur o‘rganish ularni tarbiya tizimiga integratsiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.O‘zbek xalqining to‘y marosimlari pedagogik – ma’naviy jihatdan tahlil qilish,ularni yoshlar tarbiyasida faol qo ‘llash orqali millatimizning sog‘lom ,ongli,mar ‘rifatli avlodni voyaga yetkazish yo‘lida muhim qadam tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.AVLONIY, A. (1992).Turkiy Guliston yoxud axloq.Toshkent:Fan nashriyoti.
2.Koshg‘ariy, M.(2006).Devonu lug ‘atit turk.Toshkent:Yozuvchi nashriyoti.
3.Yusuf Xos Hojib . (1990).Qutadg‘u bilig.Toshkent:G’ofur G’ulom nomidagi nashriyot.